

## О‘ЗБЕК ХАЛҚИ ETNOGENIZINING O‘RGANILISH TARIXI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOY FANLAR FAKULTETI  
TARIX YO‘NALISHI 3-BOSQICH TALABASI  
AMONKULOVA SEVARA SHODIBEK QIZI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek xalqi etnogenizining o‘rganilish davrlari haqida fikrlar keltirilgan bo‘lib, ularda bu masalaning tadqiqotlar ahamiyati yoritilgan. Shuningdek o‘zbek xalqi etnogenizining shakllanishini o‘rgangan olimlar, ularning ilmiy qarashlari va asarlari haqida qisqacha so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek, etnogenez jarayoni, etnos, ilmiy qarashlar, qipchoqlar, etnik tarix, A. Asqarov, turkiy qabilalar, tadqiqotlar.

O‘zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixini o‘rganish tarix fani oldiga qo‘ygan murakkab masalasidan biri hisoblanadi. Akademik A.Asqarovning fikricha, «har bir xalq tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog‘liq. Etnogenez va etnik tarix esa tarix fanining bosh masalasidir»<sup>1</sup>. Shu bilan birga bu masalani o‘rganish g‘oyatda muhim va olimlarning diqqat markazida turadi. O‘zbek etnosini kelib chiqishi va xalq bo‘lib shakllanishi masalasi bugungi kunda nafaqat tarixchi olimlar va ilmiy jamoatchilik vakillari balki oddiy xalqimizning ham diqqatini o‘ziga tortmoqda. A.Asqarovning «O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi» asari va boshqa bir qancha ilmiy asarlar yaratilmagunicha fanda o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixini o‘rganishni qaysi davrdan boshlash kerakligi haqida umumiy fikr yo‘q edi. Qator olimlar etnogenezni yozma manbalarda xalq nomi (etnonimi) tilga olingan davrdan boshlashni maqsadga muvofiq deb bilsalar, ikkinchi guruh olimlari esa bu jarayonni mumkin qadar qadimiy davrlardan boshlash kerak deb hisoblashgan.

O‘zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixini o‘rganilgan ma’lumotlar asosida 3 davrga bo‘lish mumkin:

- 1-davr: XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 40-yillargacha;
- 2-davr: XX asrning 40-yillaridan 90-yillargacha;
- 3-davr: Mustaqillik davri.

O‘zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixi masalasida birinchi davr tadqiqotlariga P.P.Ivanov, H. Vamberi, X. Xovoors, M. P. Telo, M. A. Chaplichka, Makshev, V.Radlov, Z. V.To‘g‘on, Ziyo Ko‘kal va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning asarlarida ushbu masala yuzasidan turli fikrlar mavjud bo‘lgan, lekin ular yuzalamaki yondashilganligi tufayli unchalik darajada qat’iy bo‘lmagan. Shu o‘rinda mashhur

<sup>1</sup>Asqarov A. O‘zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining bazi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari// O‘zbekiston tarixi 2002—No4.

tarixshunos va arxeol olim V.V.Bartoldning quydagi «... sharq xalqlari bizni madaniyatimiz ustunligiga shunda ishonadilarki, qachonki biz ularni, ular o'zlarini bilganlardan yaxshiroq bilishimizga tan bersalar»<sup>2</sup> - degan fikrlarini keltirib o'tish to'g'ri bo'ladi degan nazardaman.

Ikkinchi davr tadqiqotchilariga A. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, A.D. Udalsov, K. V. Trever, I. I. Umnyakov, A. N. Bernekov, L. A. Maqulevich, M. M.Gerasimov, N. A. Kilyakov, V.V. Ginzburg, L. V. Oshanin B. G'ofurov, M. G. Vahobov, B.X. Karmsheva va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

XX asrning 40-50-yillarigacha o'zbek xalqining shakllanish jarayoni milodiy XV-XVI asrlarda sodir bo'lgan degan fikr xorij va sobiq mustabid tuzum tarixchilari asarlarida hukmron edi. Lekin masalaga chuqurroq yondashilgani sari bu ilmiy farazning naqadar noto'g'riligini o'zbek etnogenezi chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri professor A.Yu. Yakubovskiyning 1941-yil ilmiy jamoatchilikka e'lon qilgan «O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida» («К вопросу об этногенезе узбекского народа») risolasida o'zbek xalqining shakllanish masalasini mutlaqo yangicha, ilmiy asoslar bilan yoritib berdi. O'zbek etnogenizi va etnik tarixining nazariy va ilmiy metodologik asoslarini ishlab chiqqan A.Yu. Yakubovskiy va S.P.Talstovlar «ba'zida etnos tarixi uning nomidan qadimiy bo'ladi, masalan, o'zbek xalqi tarixi uning nomidan qadimiydir», deb fandagi umum nazariy tushunchaga aniqlik kiritgan.

1942-yil 21-29-avgustda Toshkent shahrida SSSR FA tarix va falsafa bo'limining tashabbusi bilan O'rta Osiyo xalqlarining etnogeniziga bag'ishlangan ilmiy sessiya bo'lib o'tadi. Sessiyadagi ma'ruzalarda Markaziy Osiyo mintaqalarida qadimdan yashab kelgan o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va qoraqalpoq xalqlarining etnik tarixi juda qadimdan boshlanganligini va bular bir nechta etnik elementlarini o'z tarkibiga qamrab olib, murakkab etnik jarayonni o'tab, avval elat va keyin millat bo'lib shakllanganligini aniq dalillar bilan isbotlaydilar.<sup>3</sup>

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov esa o'zbek xalqining etnogenetik jarayoni Qang' davlati hududida boshlanganligi to'g'risida qimmatli fikrlarni aytib o'tadi. U O'rta Osiyo xalqlarining elat bo'lib shakllanish jarayonlarini qaysi davrda, aniqrog'i qaysi davlat tarkibida sodir bo'lganligi masalasiga aniqlik kiritib, o'zbeklarning xalq sifatida shakllanish jarayoni Qoraxoniylar davlati doirasida sodir bo'lganligi haqidagi xulosasi orqali mavjud fikrlarni inkor etadi.

Bu davrda o'zbek etnogenizini o'rgangan mahalliy olimlardan biri M.G. Vahobov bo'ldi. M.G. Vahobovning 1969-yilda «O'zbek sotsialistik millati» nomli monografiyasi o'zbek va rus tillarida nashr qilingan. Uning birinchi bobi «O'zbek elati va uning tarkibi» deb nomlangan bo'lib asosan o'zbek xalqining shakllanishiga doir

<sup>2</sup> Bartold V.V Sochenineya. T. Moskva.1963. 607—608 s

<sup>3</sup> A.Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Universitet. 2007.

ma'lumotlar keltirilgan. M.G.Vahobov o'zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezi tarixiy bosqichlarga ajratib o'rganadi. Muallif o'z asarida etnik va milliy masalarga oid juda ko'plab muammolarni ko'tarib, ularni yoritishda ziddiyatlarga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, asarida etnik tarix va etnogenezga oid ayrim masalalar bo'yicha kerakli ma'lumotlarni ham ko'rish mumkin.<sup>4</sup>

Uchinchi davrga B.Ahmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov, T. Xodjayovning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

O'zbek xalqining etnik tarixiga oid masalalar akademik B.Ahmedovning bir qator asarlarida yoritilgan. Muallif asarlarida o'zbek ajdodlari qadim zamonlardan O'zbekiston hududida yashaganliklarini XVI asrning boshlarida bu hududiga kelib o'z xukmronligini o'rnatgan ko'chmanchi o'zbeklar o'zbek xalqining tarkibiy qismlaridan biri bo'lganligini ta'kidlaydi. B.Ahmedov asarlarida olim o'zi aytib o'tganday o'zbek xalqining shakllanishiga doir «sochilib yotgan»<sup>5</sup> ma'lumotlarni terib chiqishga qo'l urdi. Ularni tarixiy manbalar asosida o'rgandi.

O'zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligida K.Shoniyozov tadqiqotlari markaziy o'rinni egallaydi. U o'zbek xalqini shakllanishini uni etnogenezida muhim ro'l o'ynagan qipchoq va qarluqlarni o'rganish asosida olib boradi. Shu asnoda «O'zbek xalqining etnik tarixiga oid (Qipchoq tarkibi materiallari asosida tarixiy etnografik tadqiqot)» (T.1974.) risolasi va «O'zbek xalqi etnogenezida qarluqlar tarkibining roli haqidagi» deb nom olgan maqolasi chop etiladi. K. Shoniyozovning 2001- yil nashr etilgan «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni» asari ushbu masalada so'nggi yillarda e'lon qilingan yirik tadqiqot hisoblanadi. Unda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, o'zbek xalqi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, mintaqadagi etnik birliklarning ilmiy asoslangan tasnifi, O'zbekiston hududida eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha kechgan etnik jarayonlarni davrlashtirish masalasi atroflicha yoritib etnologiya fanining nazariy va ilmiy metodologik asoslariga aniqlik kiritdi.

O'zbek xalqining shakllanishi haqida tarixchilar tomonidan turli xil, bir-biriga qarama- qarshi fikrlar ilgari surildi. Biroq bu mavzuda taniqli tarixchi-arxeolog olim, O'zFA akademigi, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi bo'yicha qator ilmiy maqolalar, risola va «O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi», «O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi» kitoblari muallifi Ahmadali Asqarov izlanishlari juda muhim. Olim o'z ilmiy fikr mulohazalarini arxeologik ma'lumotlar bilan chambarchas bog'liq holda izohlab keldi. A.Asqarov o'zbek xalqining etnogenezi, etnik va millat bo'lib shakllanishining 4 ming yillik tarixini arxeologik, antropologik, etnografik, lingivistik, tarixiy toponimika va qadimgi yozma manbalar ma'lumotlarining ilmiy tahlillari asosida o'rgandi. A.Asqarov tomonidan yozilgan asarlar o'zbek xalq etnogenezi o'rganishdagi eng muhim va asosiy manba vazifasini o'taydi. «O'zbek xalqining kelib

<sup>4</sup> Javlonbek R.B. va Doniyor.B.A. O'zbek etnosini o'rganilish tarixi. Academic Research In Educational sciences/ 2020.

<sup>5</sup> B.Ahmedov. tarixdan saboqlar. Toshkent /O'qituvchi nash.1994. 371 b

chiqish tarixi» asari o'zbek xalqining kelib chiqishiga bo'lgan qiziqishlarning dolzarbligini isbotlaydi. Asar o'zbek xalqining kelib chiqishi, etnogenez tarixi, uning urug'-qabila holatidan elat-xalq bo'lib shakllanib borish jarayoni va shakllangan xalq sifatida millat darajasiga yetish bosqichlari boy moddiy madaniyat va yozma manbalarning ilmiy tahlili asosida bayon etilgan.

K. Shoniyoov va A. Asqarovlar o'zbek xalqining kelib chiqish tarixi ildizlari ikkita, ya'ni birinchisi mahalliy eronzabon sug'diylar, xorazmiylar boxtariylar va sakmassaget qabilalari bo'lsa, ikkinchi ildiz shu hududda qadimdan yashab kelayotgan turkiy qabilalar edi, ularning uzoq asrlar davomida o'zaro qorishuvidan yangi etnos o'zbek xalqi shakllangan, degan xulosaga keladilar.

Bu davr tadqiqotchilariga sovet va rus arxeologi va antropologi, Tarix fanlari nomzodi, professor Telman Xodjayovning ilmiy izlanishlarini ham kiritsak bo'ladi. T. Xodjayov ham o'zbek etnogenizini o'rganishda muhim ishlar qildi va ilmiy asarlar yaratdi. Olimning bu boradagi bir qancha asarlari Toshkent va Moskva shaharlarida chop etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganish bugungi kunda o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning tarixi uning etnogenez va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez va etnik tarix xalq tarixining ma'lum bosqichlarida vujudga kelib, ma'lum bir etnosning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon. U yoki bu xalqning kelib chiqish tarixini o'rganmay turib, uning iqtisodiy xo'jalik tarixini, madaniyati, davlatchiligi, siyosiy va ma'naviy dunyosini o'rganish mumkin emas. O'zbek xalqini etnogenezini o'rganishi ham dastlab u haqida XX asrning 40-yillarigacha mavjud bo'lgan yuzalamaki va noto'g'ri ilmiy xulosalarni o'zgartirishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa mustaqillik davri tadqiqotchilarining bu boradagi ilmiy mulohazalari o'zbek xalqi etnogenezini bronza davriga qadar qadimiylashtirilishiga olib keldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asqarov. O'zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi. Universitet. 2007
2. Ahmedov. Tarixdan saboqlar. Toshkent – O'qituvchi nash.1994. 369-378 b.
3. Абиров В. Э. Вопросы этногенеза узбекского народа в этнографических исследованиях Узбекистана в годы независимости. Research Results Social Studies and Humanities. 2021.
4. Asqarov. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. O'zbekiston. 2015
5. K. Shoniyoov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. 2001
6. З.Х.Арифхонава, С.Н.Абашин, Д.А.Алимова. «Народы и культуры». Узбеки. Часть I. Этническая история. Москва. 2011.
7. Asqarov. « O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix» ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent.2004.